

THE TRANSITION OF TASHKENT PROPERTY INTO THE
HANDS OF ABDULLAH BAHADUR KHAN

Kimsanova Rukhshona Khayrullayevna

Fergana State University, Faculty of History, 3rd-year student

RushanaXayrullayevna@gmail.com

(Tel: +998 93 855 10 05)

Annotation: This study examines the process of the incorporation of Tashkent into the domain of Abdullakhan II from a historical and political perspective. It highlights dynastic conflicts within the Shaybanid state, particularly the confrontation with Navruz Ahmad Khan (Baroq Khan) and his descendants, as key factors. The military campaign of 1582 and the defeat of Bobo Sultan are evaluated as decisive events in subordinating Tashkent to central authority. The study concludes that this process played a crucial role in strengthening political centralization and overcoming territorial fragmentation in Transoxiana.

Keywords: Abdullakhan II, Tashkent, Shaybanids, Baroq Khan, Bobo Sultan, military campaigns, centralization, Transoxiana

ПЕРЕХОД ТАШКЕНТСКИХ ВЛАДЕНИЙ В
РУКИ АБДУЛЛЫ БАХАДУР-ХАНА

Кимсанова Рухшона Хайрулла кизи

Ферганский государственный университет,

Исторический факультет, студентка 3-го курса

RushanaXayrullayevna@gmail.com

(Тел: +998 93 855 10 05)

Аннотация: Данное исследование посвящено процессу перехода Ташкента под власть Абдуллахана II в историко-политическом аспекте. Особое внимание уделяется династическим противоречиям в государстве Шейбанидов, в частности борьбе с Навруз Ахмадханом (Баракханом) и его потомками. Военные кампании 1582 года и разгром Бобо Султана рассматриваются как решающий этап установления контроля над Ташкентом. Делается вывод о том, что данный процесс сыграл ключевую роль в укреплении централизации власти и преодолении политической раздробленности в Мавераннахре.

Ключевые слова: Абдуллахан II, Ташкент, Шейбаниды, Баракхан, Бобо Султан, военные кампании, централизация, Мавераннахр

TOSHKENT MULKINI ABDULLOX BAHODIRXON QO'LIGA O'TISHI

Kimsanova Ruxshona Xayrulla qizi.

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

RushanaXayrullayevna@gmail.com

(Tel: +998 93 855 10 05)

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot Toshkent mulkining Abdullaxon II qo'lga o'tish jarayonini tarixiy-siyosiy jihatdan tahlil qiladi. Unda Shayboniylar sulolasi ichidagi sulolaviy kurashlar, xususan Navro'z Ahmadxon (Baroqxon) va uning avlodlari bilan bo'lgan qarama-qarshiliklar asosiy omil sifatida yoritiladi. 1582-yilgi harbiy yurishlar va Bobo Sulton ustidan qozonilgan g'alaba Toshkentning markaziy hokimiyatga bo'ysundirilishida hal qiluvchi bosqich sifatida baholanadi. Natijada ushbu jarayon Movarounnahrda siyosiy markazlashuvni ta'minlash va hududiy parokandalikka barham berishda muhim ahamiyat kasb etgani asoslanadi.

Kalit so'zlar: Abdullaxon II, Toshkent, Shayboniylar, Baroqxon, Bobo Sulton, harbiy yurishlar, markazlashuv, Movarounnahr

KIRISH

Abdullaxon II (1533-1598) Shayboniylar sulolasining so'nggi qudratli hukmdori bo'lib, uning hukmronligi (1557-1598) O'rta Osiyo tarixida muhim davr hisoblanadi. Biroq, uning hokimiyatga kelishini tushunish uchun XVI asr O'rta Osiyosining murakkab tarixiy-siyosiy sharoitini chuqur tahlil qilish zarur. XVI asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo siyosiy jihatdan og'ir inqirozni boshdan kechirardi.

XVI asrda Toshkent Movarounnahrning eng muhim strategik hududlaridan biri bo'lib, u Farg'ona vodiysi, Dashti Qipchoq va Turkiston yo'llarini nazorat qiluvchi harbiy-siyosiy markaz vazifasini bajargan. Shayboniyxon vafotidan keyin Toshkent amalda markaziy hokimiyatdan ajralib, Shayboniylar sulolasining alohida tarmog'i - Navro'z Ahmad xon (Baroqxon) va uning avlodlari qo'lida mustaqil siyosiy markazga aylandi. Shu sababli Toshkent masalasi Abdullaxon II ning markazlashgan davlat barpo etish siyosatida eng murakkab va qonli muammolardan biri bo'ldi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Navro'z Ahmad xon (Baroqxon) XVI asrning 1540-1550-yillarida Toshkent, Turkiston va Sirdaryo bo'yi hududlarida kuchli harbiy tayanch yaratdi. Hofiz Tanish Buxoriy "Abdullanoma" asarida qayd etilishicha[3], Navro'z Ahmad xon o'z lashkarini ko'chmanchi qabilalar hisobiga mustahkamlab, tezkor va harakatchan qo'shin shakllantirgan.

1551-1552-yillarda Navro'z Ahmad xon Samarqand ustiga bir necha bor harbiy yurish uyushtirdi. Bu yurishlarning asosiy maqsadi, Movarounnahr siyosiy markazlarini egallash, Abdullaxon (o'sha paytda hali xon emas) ta'sirini yo'qotish,

o'zini Shayboniylar sulolasining yetakchi hukmdori sifatida ko'rsatish edi.

Abdullaxon bu bosqichda ochiq jangdan ko'ra mudofaa va ittifoqlar siyosatini tanlab, Samarqandni yo'qotib qo'ymaslikka erishdi.

Navro'z Ahmad xonning 1556-yilda vafoti Toshkentdagi siyosiy vaziyatni murakkablashtirdi. Hokimiyat uning o'g'illari – Darveshxon va Bobo Sulton qo'liga o'tdi. Bu davrda Abdullaxon va Toshkent hukmdorlari o'rtasidagi kurash yanada keskin va muntazam harbiy to'qnashuvlar shaklini oldi.

Darveshxon bilan harbiy to'qnashuvlar. 1560-yillar boshida Darveshxon Abdullaxon nazoratidagi hududlarga – ayniqsa Sirdaryo bo'yidagi qal'alar (Sayram, O'trar atroflari) tomon harbiy bosqinlar uyushtirdi. Bu hududlar savdo va harbiy jihatdan muhim bo'lgani sababli, janglar asosan: daryo kechuvlari, qal'alar, karvon yo'llari atrofida kechgan.

1554-yilda Baroqxon Samarqandda o'z hokimiyatini tiklash maqsadida navbatdagi harbiy yurishni amalga oshirganida, Samarqanddagi shayboniy sultonlar Sulton Said boshchiligida Abdullaxondan yordam so'rashga majbur bo'ldilar. Bu vaqtda Miyonqolda o'z hokimiyatini mustahkamlab olgan Abdullaxon ukalari O'zbek sulton va Xusrav sulton hamda Samarqand xonadon vakillari bilan ittifoq tuzib, Baroqxonga qarshi yurish boshladi[4]. Biroq bo'lib o'tgan jangda ittifoqchilar mag'lubiyatga uchrab, Abdullaxon Nasaf tomon chekinishga majbur bo'ldi. Keyingi harbiy to'qnashuvlarda ham u muvaffaqiyatga erisha olmadi va natijada Miyonqoli Baroqxon tasarrufiga o'tdi.

Shundan so'ng Abdullaxon o'z siyosiy mavqeini tiklash maqsadida harbiy va diplomatik choralarni uyg'unlashtirgan holda harakat qildi. Baroqxon Buxoroni qamal qilgan paytda Buxoro hokimi Burhon sulton Abdullaxondan yordam so'rab murojaat etdi. Abdullaxon Balxdan Buxoro tomon yo'l olgan bo'lsa-da, Baroqxon tomonidan yuborilgan qo'shinlar tomonidan to'xtatildi. Shunga qaramay, u Buxoro atrofidagi siyosiy kuchlar bilan aloqalarni mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi.

1557-yilga kelib Abdullaxon Samarqand sultonlari Gadoy sulton va Juvonmardali sulton bilan ittifoq tuzib, Samarqandni egallash maqsadida harbiy yurish boshladi. Jizzax yaqinida bo'lib o'tgan jangda Baroqxon avlodlari mag'lubiyatga uchradi. Natijada Samarqand Abdullaxon ta'siri ostida qoldi va shahar Gadoy sulton hamda Juvonmardali sultonga topshirildi[4].

Keyingi yillarda Abdullaxon Baroqxon avlodlari o'rtasidagi ichki ziddiyatlardan ustalik bilan foydalandi. Xususan, Darvishxon va Bobo sulton o'rtasidagi nizolar Abdullaxonga Movarounnahrda o'z ta'sirini kuchaytirish imkonini berdi. 1564-yilda Darveshxon Abdullaxon bilan munosabatlarni keskinlashtirmaslik siyosatini tanlab, Buxoroga tashrif buyurdi. Bu holat Abdullaxon siyosiy nufuzining tobora oshib borayotganidan dalolat beradi.

1567-1569-yillarda Abdullaxon Samarqand, Kesh va unga tutash hududlardagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etdi hamda raqib sultonlarni bosqichma-bosqich siyosiy maydondan siqib chiqardi. 1569-yilda Darveshxonning Samarqandga qilgan yurishida ham Abdullaxon uni qo‘llab-quvvatladi. Ushbu ittifoq Samarqand ustidan nazoratni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

1570-yillarning oxiriga kelib Abdullaxon Movarounnahrda hal qiluvchi siyosiy kuchga aylandi. 1578-yilda u Samarqandni uzil-kesil egallab, Toshkent va Turkiston tomon keng ko‘lamli harbiy yurishlar uyushtirdi. Toshkent egallangach, Darveshxon rasman hokim etib tayinlangan bo‘lsa-da, amalda barcha muhim siyosiy qarorlar Abdullaxon tomonidan qabul qilindi.

Abdullaxon davrida Toshkent va Farg‘ona vodiysi markaziy hokimiyat tomonidan boshqaruvning muhim strategik hududlari sifatida e‘tiborga olindi. 1582-yilda Toshkent hokimligi Do‘stum sultonga (asl ismi Abdulquddus sulthon) topshirildi, Axsi esa Poyanda Muhammad sultonga berildi. Bu qaror hududiy siyosiy barqarorlikni ta‘minlash va shimoldan keladigan ko‘chmanchilar tahdidiga qarshi samarali boshqaruvni o‘rnatish maqsadida qabul qilingan. Shu bilan birga, hokimlik tizimida ota-bola ketma-ketligi va sodiqlik printsipi muhim rol o‘ynadi.

1583-yilda Abdullaxon Toshkent va uning atrofidagi hududlarda o‘z to‘liq hukmronligini o‘rnatdi. Shu yil davomida u hududiy isyonlarni bostirish va markaziy hokimiyatning ta‘sirini mustahkamlash uchun Do‘stum sulthon va O‘zbek sultonga tayinlangan qo‘shinlardan foydalangan. Axsi hokimligi Poyanda Muhammad sultonga berilishi hududiy boshqaruvning strategik ahamiyatini, shuningdek, shimoliy va sharqiy chegaralarni himoya qilish zaruratini ko‘rsatadi.

1586-yilda Tavakkalxonning Toshkentga qilgan hujumi va 1588 yildagi mahalliy qo‘zg‘olonlar Toshkent va Farg‘ona vodiysida hukmronlikning barqaror emasligini namoyon etdi. Shu davrda markaziy hokimiyat ittifoqchilari tomonidan amalga oshirilgan harbiy harakatlar orqali qo‘zg‘olonlar bartaraf qilindi, bu esa hududda siyosiy barqarorlik va ma‘muriy boshqaruvning samaradorligini ta‘kidledi. Qo‘zg‘olonlardan keyin Toshkent va Farg‘ona vodiysi markaziy hokimiyat nazorati ostida qolgan, ammo ichki va tashqi xavf-xatarlar hanuz mavjud edi[4].

1591-yilda Isfandiyor sulthonning vafotidan so‘ng, Toshkent hokimligi O‘zbek sultonga topshirildi. U hududni 1598-yilgacha boshqardi va bu davrda Toshkent va Farg‘ona vodiysi nisbatan tinchlik va barqarorlikka erishdi. Shu bilan birga, Abdullaxonning strategik harbiy yurishlari va ma‘muriy qarorlari Toshkent hududida siyosiy boshqaruvning mustahkamligini ta‘minlashga xizmat qildi[4].

Abdullaxon Farg‘ona vodiysida ham markaziy hokimiyatni mustahkamlashga qaratilgan choralar ko‘rdi. Andijon hokimi Mo‘min sultonga amir Abdusamadni otaliq etib tayinlashi bu hududda markaziy nazorat kuchayganini ko‘rsatadi. Shuningdek,

Xo‘jand viloyatini o‘z tarafdorlariga taqsimlab berish orqali raqib sultonlarning siyosiy imkoniyatlarini chekladi.

1582-yilga kelib Abdullaxon Toshkentni to‘liq egallab, Sevinchxo‘jaxon avlodlarining bu hududdagi hukmronligiga barham berdi. Shu tariqa Movarounnahrning shimoli-sharqiy hududlari, jumladan Farg‘ona vodiysi ham amalda Abdullaxon nazorati ostiga o‘tdi. Bu esa uning butun Movarounnahrni siyosiy jihatdan markazlashtirishga qaratilgan siyosatining mantiqiy yakuni bo‘ldi.

Abdullaxon bu janglarda qattiq qarshilik ko‘rsatib, Darveshxon qo‘shinlarini bir necha bor chekinishga majbur qilgan. “Abdullanoma”da bu janglar “ikki Shayboniy avlodining Movarounnahr taqdiri uchun kurashi” sifatida talqin qilinadi[3].

Bobo Sulton bilan hal qiluvchi janglar. Bobo Sulton Darveshxon vafotidan keyin Toshkent va Turkistonning to‘liq hokimiga aylandi. U o‘zini nafaqat Toshkent hukmdori, balki butun Shayboniylar davlatining qonuniy xoni deb e‘lon qilishga intildi. Shu sababli u Abdullaxon II ning markazlashuv siyosatiga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi.

1579–1581-yillardagi chegaraviy janglarda, ikki tomon o‘rtasida Turkiston atrofida, Yassi (Hozirgi Turkiston shahri), Chimkent va Sirdaryo bo‘ylarida bir qator qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o‘tdi. Bu janglar uzoq davom etgan bo‘lib, tomonlarning kuchi tenglashib turgan. Abdullaxon bu davrda Balx va Samarqandni mustahkamlab, Toshkentga hal qiluvchi zarba berish uchun tayyorgarlik ko‘rdi.

1582-yilgi Toshkent yurishi – hal qiluvchi jang. 1582-yilda Abdullaxon II katta qo‘shin bilan Toshkent va Turkistonga qarshi keng ko‘lamli harbiy yurish boshladi. Manbalarga ko‘ra: yurishda markazlashgan muntazam qo‘shin, og‘ir qurollar va qal‘a qamal usullari qo‘llanilgan. Turkiston yaqinidagi hal qiluvchi jangda Bobo Sulton qo‘shinlari tor-mor etildi. Bobo Sulton qochishga uringan paytda qo‘lga olinib, qatl etildi. Bu voqea Shayboniylar davlatidagi ichki qarama-qarshiliklarga nuqta qo‘ygan tarixiy burilish bo‘ldi.

Toshkentning bo‘ysundirilgandan so‘ng aniqrog‘i 1582-yilgi g‘alabadan so‘ng, Toshkent to‘liq Abdullaxon II tasarrufiga o‘tdi, viloyatga markazdan noib tayinlandi, mahalliy mustaqil lashkarlar tarqatib yuborildi. Bu g‘alaba Abdullaxon II ning 1583-yilda rasman Buxoro xoni deb e‘lon qilinishiga siyosiy va harbiy asos yaratdi.

Abdullaxon II davrida Toshkentdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida qisqacha xulosalaydigan bo‘lsak, XVI asrning ikkinchi yarmida Movarounnahrda yuzaga kelgan murakkab siyosiy vaziyat sharoitida Abdullaxon shayboniylar sulolasining eng uzoqni ko‘ra bilgan va strategik fikrlovchi vakili sifatida maydonga chiqdi. U dastlabki harbiy mag‘lubiyatlarga qaramay, siyosiy iroda, diplomatik moslashuvchanlik va ichki raqobatlaridan ustalik bilan foydalanish orqali o‘z mavqeini bosqichma-bosqich mustahkamladi. Bu holat Abdullaxon faoliyatida qisqa muddatli

harbiy muvaffaqiyatlardan ko‘ra uzoq muddatli siyosiy ustuvorlik ustun qo‘yilganini yaqqol namoyon etadi.

Navro‘z Ahmad xon va uning avlodlari bilan olib borilgan janglar Abdullaxon II faoliyatining eng uzoq, murakkab va qonli bosqichi bo‘lib, bu kurash Shayboniylar davlatidagi sulolaviy parokandalikka barham berdi, Toshkent masalasini hal etish orqali markazlashgan davlat barpo etilishiga yo‘l ochdi, Abdullaxon II ni XVI asr Movarounnahrining eng kuchli hukmdori sifatida tarixga kiritdi. Bu janglar faqat hududiy emas, davlat tuzilishi uchun olib borilgan siyosiy-harbiy kurash edi.

Abdullaxonning asosiy yutug‘i Movarounnahr hududida siyosiy tarqoqlikka barham berish yo‘lidagi izchil harakatlari bilan belgilanadi. U Baroqxon avlodlari o‘rtasidagi ichki ziddiyatlarni chuqur tahlil qilib, ularni bevosita qarama-qarshilikka bormasdan, diplomatik ittifoqlar va maqsadli harbiy aralashuvlar orqali o‘z foydasiga yo‘naltira oldi. Natijada Samarqand, Toshkent va Farg‘ona vodiysi kabi strategik hududlar bosqichma-bosqich markaziy hokimiyat nazorati ostiga o‘tkazildi. Ayniqsa, Abdullaxon tomonidan mahalliy hukmdorlarni rasman hokim etib qoldirgan holda, amalda barcha muhim siyosiy qarorlarni markazdan boshqarish tizimi joriy etilgani uning davlat boshqaruvida pragmatik va markazlashtiruvchi siyosat yuritganini ko‘rsatadi. Bu uslub bir tomondan keskin qarshiliklarning oldini olgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan Movarounnahrda nisbiy siyosiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qildi.

Xulosa qilib aytganda, Abdullaxon faoliyati Movarounnahr tarixida shunchaki hududiy kengayish yoki sulolaviy ustunlik bilan cheklanib qolmay, balki markazlashgan davlat boshqaruvi shakllanishida muhim bosqichni tashkil etdi. Uning siyosiy merosi keyingi davrlarda hududiy yaxlitlik va markaziy hokimiyat ustuvorligi tamoyillarining mustahkamlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi. Takidlash joizki Toshkent ushbu hukumdor davri uchun ham ham siyosiy ham strategik jihatdan kerakli va qulay joylardan, manfatli hududkardan biri edi. Bundan tashqari esa, Abdullaxon shaxsiyatini XVI asr Movarounnahr siyosiy tarixida hal qiluvchi omil sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN MANBA ADABIYOTLAR:

1. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. –T.: O‘quvchi, 1994 – 429 b.
2. Donyorov A. Markaziy Osiyo xalqlari tarixshunosligi. – Toshkent: NIF MSH, 2020. – 451 b.
3. Hofiz Tanish Al Buxoriy. Abdullanoma (Sharafnomaiy shoxiy). – Toshkent: Sharq nashriyoti, 1999. – 384 b.
4. Nishonov A. Shayboniylar davrida Farg‘ona vodiysidagi siyosiy jarayonlar. tarix. fal. dok...diss. – Farg‘ona, 2022. – 133 b.
5. Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. – Toshkent, 2021. – 246 b.